

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14883983>

TIL VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI

Vakilova Muslimabonu

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 201-guruh talabasi.

M.A.Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada til va uning rivojlanish tarixi, tilning ibtidoiy davrdan to shu davrgacha qanday o‘zgarishlarga duch kelgani, bu o‘zgarishlar mobaynida tilning qadri, ahamiyati va jamiyatga tilning ta’siri natijasi, ”Nima uchun til muhim ahamiyatga ega bo‘lishi kerak?” degan savollarga javob olishimiz va zamonaviy davrda tilga bo‘lgan e’tibor tushishi natijasida yuzaga kelgan muammolar va bu muammolarni yechimida olib borilayotgan islohotlar va qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar haqida qisqa hamda ixcham so‘z olib boriladi.*

***Kalit so‘zlar:** til, islohot, jamiyat, o‘zbek tili, tarbiya, qonun, qoida, so‘zlashuv, omma, publisistika, uslublar, dunyo tillari.*

***Аннотация:** В статье рассматриваются язык и история его развития, изменения, которым он подвергался с первобытных времен до наших дней, значение этих изменений, а также влияние языка на общество. Анализируется вопрос: «Почему язык должен иметь важное значение?». Кроме того, рассматриваются проблемы, возникшие в результате снижения внимания к языку в современную эпоху, а также проводимые реформы и необходимые меры для их решения.*

***Ключевые слова:** язык, реформа, общество, узбекский язык, воспитание, закон, правило, разговорная речь, масса, публицистика, стили, языки мира.*

Annotation: *The article discusses language and its historical development, the changes it has undergone from primitive times to the present, the significance of these changes, and the impact of language on society. It explores the question: "Why should language be of great importance?". Additionally, it addresses the problems that have arisen due to the decline in attention to language in the modern era, as well as the ongoing reforms and necessary measures for their resolution.*

Keywords: *language, reform, society, Uzbek language, education, law, rule, speech, public, journalism, styles, world languages.*

Til deb, murakkab muloqot tizimiga yoki shu tizimni o'rganish va ishlatish qobiliyatiga aytiladi. Til asosan, muloqot vositasi hisoblanadi[1]. Inson paydo bo'libdiki, doim turli xil yo'llar bilan muloqot o'rnatishga ehtiyoj tug'ilgan. Qadimda ibtidoiy jamoalar to'adadagi sheriklari bilan imo-ishora yoki turli xil ovoz chiqarish yo'llari bilan aloqani ta'minlab borishgan. Keyinchalik, odam avlodi rivojlana boshlagani sayin aloqa o'rnatish usullari ham o'zgarib, qisqa bo'g'inlardan so'zlar yasash va qo'l harakatlari bilan ifodalash boshlangan. Asta sekinlik bilan tilning rivojlanishi bir xalqni, xalq esa davlatni hosil qildi. Bundan ayon bo'ladiki, xalq va davlatlar paydo bo'lganidan beri jamiyat uchun umumiy til, so'zlashuv va yozuv turlari mavjud. Xo'sh, sizningcha, tilning ahamiyati avvallari ham hozirgidek mavqega ega bo'lganmi yoki tilga qarashlar u zamonlarda o'zgacha tus olganmi? Maqola davomida shu haqida fikr almashamiz.

Zamon o'zgargani va yashash muhiti va dunyoqarashlar o'zgargani sayin tilga bo'lgan e'tibor ham dunyoning turli tomonlarida turlicha bo'lgan. Masalan, Turkiya davlati Fransiya mustamlakasi bo'lgan davrda turk maktablarida asosiy e'tibor turk tili emas, balki, fransuz tilini o'rganish uchun alohida qarashlar mavjud edi. Jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarida ham SSSR tuzumi davrida rus tili omma orasida keng yoyilgan va so'zlashuv, qonun hujjatlari va hatto, xalq orasida ham rus tili ommalashgan[2]. Hali hanuz bu belgilardan ba'zilar o'z izini yo'qolmasligiga muvaffaq bo'lgan[3]. Faktlarga tayanib aytadigan bo'lsak, dunyoda 6-7mingdan oshiq til mavjud bo'lsa, shu tillardan har kuni 3 yoki 4 til o'lik tillar qatoriga qo'shiladi[4]. Aynan, nima uchun deb o'ylaysiz? Albatta, bunga asosiy sabablardan biri,tilni asrab

qolishda nafaqat mutasaddi xodimlar balki, kelajagi o‘z qo‘lida bo‘lganlar – xalq ham yetarlicha sabab bo‘la oladi[5]. Negaki, o‘z yurtimizda bo‘layotgan hayotdan aytsa, hozirda yoshlar o‘z tilidan uyaladigan va hatto, o‘z tilida gaplasha olmay to‘liq rus tilida so‘zlashuvni olib boradigan “o‘zbek”lar yoki o‘z tilida turli boshqa tildagi so‘zlarni aralashtirib gapiradiganlar ham talaygina. Axir, ulamolar:

“Har kim o‘z tili bilan tirik” deb bejiz aytishmagan[6]. Til qadrlanmas, o‘z vaqtida asrab qolish uchun harakatlar olib borilmas ekan, bunday xalq yo‘q bo‘lishga mahkum bo‘ladi[7].

Hozirda davlatimizda o‘zbek tilini asrashda keng ko‘lamda islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, maslahatchilar tomonidan geografik obyektlarni qayta nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda[8]. Xususan, Xorazm viloyati Tuproqqal’a tumanida 283 ta turli obyektlar mavjud. Bular 18 ta mahalla, 17 ta aholi punkti, 7 ta qabriston, 1 ta istirohat bog‘i va 240 ta ko‘chalardir. Ularning barchasining nomlariga tuzatishlar kiritilib, nomlanmagan ko‘chalar nomlanib, xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli qarorlari bilan tasdiqlangan. Va ushbu 283 ta obyekt qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda davlat reyestri bazasiga kiritildi[9].

Mening xulosam shuki, tilimizni asrashda olib borilayotgan tartibot-tashviqot ishlarida keng jabhada kelajagimiz poydevori – yoshlarni jalb qilish va tilning ahamiyati va tilni qadrlamasa, qanday holatlar yuzaga kelishini o‘rgatish kerak. Shoir Abdulla Oripov aytganidek, “Sening o‘lgan kuning shubhasiz, men ham to‘ti bo‘lib qolaman”[10].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fitrat A. Til va milliy ong. – Toshkent: Maorif nashriyoti, 1927.
3. Ethnologue. Summary by Language Status. – URL: <https://www.ethnologue.com>
4. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Til va milliy ong. – Toshkent: Hilol-nashr, 2010.
5. O‘zbekiston Respublikasi Geografik ob’ektlarni nomlari to‘g‘risidagi qonuni. – Lex.uz. – URL: <https://lex.uz>
6. Internet sahifa: yuz.uz; Tilni asrash, rivojlantirish millatni yuksaltirishning muhim omilidir. – URL: <https://yuz.uz/uz/news/tilni-asrash-rivojlantirish-millatni-yuksaltirishning-muhim-omilidir>
7. Oripov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2000.